

“Biz – sogʻlom turmush tarzi tarafdorimiz”



“Biz – sogʻlom turmush tarzi tarafdorimiz”

Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligi Respublika OITS ga qarshi kurashish markazi hamda Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va oʻquvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi hamkorligida oliy taʼlim muassasalari talaba yoshlari oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish OIV/OITS kasalligining yuqish yoʻllari patogenezini, epidemiologiyasi, kasallikning klinik belgilari va profilaktikasiga qaratilgan targʻibot tadbirlarini oʻtkazish rejasiga muvofiq, joriy yilning 22-noyabr kuni “TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti “Yoshlar bilan ishlash, maʼnaviyat va maʼrifat boʻlimi” boshligʻi Z.Haydarov, “Ekologiya va huquq” fakulteti dekani B.Norov, dekan oʻrinbosari O. Roʻzibayev, fakultet tyutorlari X.Roʻzmetov va I.Ahmedovalar hamda fakultetning 1-bosqich talabalari ishtirokida “Biz – sogʻlom turmush tarzi tarafdorimiz” mavzusida tadbir oʻtkazildi.



Tadbirda fakultet dekani B.Norov soʻzga chiqib tadbirni kirish soʻzi bilan ochib berdi va yigʻilganlarni tashrif buyurgan mutaxassislar bilan tanishtirdi. Shundan soʻng mutaxassislar sogʻlom turmush tarzi va OIV/OITS ga chalinish sabablari, infeksiyaning yuqish yoʻllari va oqibatlari haqida maʼlumot berdi. Shuningdek, ushbu infeksiyani yuqtirib olmaslik uchun nimalarga eʼtibor qaratish kerak ekanligi haqida ham fikr va tavsiyalar berib oʻtildi. Talabalar mazkur uchrashuvdan oʻzlariga kerakli maʼlumotlarga ega boʻldilar. Tadbir soʻngida ayni mavzuga doir mutaxassislardan tuzilgan, universitet hududiga tashkil etilgan bepul tibbiy koʻrikdan oʻtishlari mumkinligi ham alohida taʼkidlandi.